



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil
yanvar-mart oylarida






2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2021- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar

Info

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar- mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 381,2 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **204,1 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,1 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar- mart oylarida)





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1 381,2	108,1
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	64,1	112,7
Moliyaviy xizmatlar	359,6	121,5
Transport xizmatlari	216,6	104,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	208,2	101,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	41,2	102,8
Savdo xizmatlari	407,1	97,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	33,6	101,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	71,4	133,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	24,8	120,1
Ijara xizmatlari	34,1	117,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	34,4	104,2
Shaxsiy xizmatlar	40,5	103,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,0	96,3
Boshqa xizmatlar	34,8	93,4



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ko'rsatkich

Eng past ko'rsatkich





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **29,5 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **1,4 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,3 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **1,5 %**.

2021- yil yanvar- mart oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**33,6 %**), moliyaviy xizmatlarda (**21,5 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**20,1 %**), ijara xizmatlarda (**17,9 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlarda (**12,7 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi boshqa xizmatlari (**6,6 %**) sohasida qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi – **146,4 %**. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda hajmining keskin pasayishi boshqa xizmatlari (**15,8 %**) sohasida qayd etildi.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar


Info

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.


Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Avtomobil transporti xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi, % da

2020- y. yanvar-mart



2021- y. yanvar-mart



Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **55,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **55,2 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021- yil yanvar- mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,5 %** ni tashkil etdi, bu esa **407,1** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida ularning hajmi **368,9** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **31,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y.
yanvar- mart

Xizmatlar hajmi
368,9 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
103,7%

Ulushi
31,3 %



2021 y.
yanvar- mart

Xizmatlar hajmi
407,1mlrd. so'm

O'sish sur'ati
97,9%

Ulushi
29,5 %



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar- mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **68,3 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar- mart oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

5,3 %

84,3 %

10,4%



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida chakana savdo ulushi **80,9 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar- mart oylarida)



2021- yil yanvar- mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **359,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **289,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmi-dagi ulushi **26,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida ularning ulushi **24,6** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **70,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar- mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **21,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida ularning o'sish sur'ati **146,4** % ga yetgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **95,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar- mart oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **2,7 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar- mart oylarida)



Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,6%** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020- y.
yanvar-mart**

56,2
mlrd. so'm

119,5%

4,8 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

7,9 mlrd. so'mga

**2021- y.
yanvar-mart**

64,1
mlrd. so'm

112,7%

4,6 %



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**51,3
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**71,4
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
mart**



**2021- y.
yanvar-
mart**

2021- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **71,4** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,2 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **133,6 %** ni tashkil etdi.

105,9 %

O'sish sur'atlari, % da

133,6 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- mart oylarida xizmatlar hajmi **51,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **5,9 %** darajasida qayd etilgan.




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar- mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi Sh. Rashidov (2 435,4 mln. so'm), Zomin (1 680,1 mln. so'm), Do'stlik (1 364,7 mln. so'm) va G'allaorol (1 334,4 mln. so'm) tumanlari, hamda Jizzax shahrida (59 178,4 mln. so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm (2021- yil yanvar- mart oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 40 290,5 mln. so'mga teng bo'lgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

34,6

41,2

2020- y. yanvar-
mart 2021- y.



O'sish
sur'ati, % da

98,5

102,8

2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **6,6** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar- mart

88,9%

11,1 %



11,7 %

88,3%

2020- y. yanvar- mart

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **88,9 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- mart oylarida ularning ulushi **88,3 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar-mart

2020- y.

2021- y.

18,8
mlrd. so'm

**Xizmatlar
hajmi**

24,8
mlrd. so'm

129,7 %

**O'sish
sur'ati**

120,1 %

1,6 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,8 %






2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, viloyatining har bir iqtisodiy tumani va shaharning barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar - mart oylarida)



2021- yil yanvar- mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **42,2 %** (2020- yil yanvar- mart oylarida – **41,2 %**)ni Jizzax shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod tumanida – **0,9 %** (2020- yil yanvar- mart oylarida – **1,0 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar- mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Jizzax viloyati	39 141,7	104,1	112,9
Jizzax shahri	1 147,4	107,0	119,4
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 986,2	105,5	103,6
Baxmal	1 745,8	106,8	102,2
G'allaorol	890,2	108,4	104,7
Sh. Rashidov	1 787,6	105,7	106,9
Do'stlik	1 024,0	106,9	103,7
Zomin	1 572,5	102,8	106,6
Zarbdor	2 573,2	106,7	102,8
Zafarobod	1 480,6	111,2	103,5
Mirzacho'l	605,1	111,4	102,7
Paxtakor	3 007,4	104,1	102,9
Forish	2 292,8	101,8	105,4
Yangiobod	1 212,1	107,5	103,7



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**Hajmning
o'sishi**

**977,1
ming so'm**

**127,4
ming
so'mga**

2021- yil yanvar- mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **977,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar- mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **849,7** ming so'mni tashkil etgan.

106,0 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- aprel holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

12 459
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

1 963
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

118,7 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi

57,4 %




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,4 %**, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,9 %**, sanoat **16,2 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **9,5 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **58,4 %** ni, sanoat **16,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **15,0 %** ni, qurilish **10,5 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



60,3 %

2021- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsa-tilgan bozor xizmatlarining ulushi **60,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **74,2 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi.
Tel.: 72-212-51-27